ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SURXONDARYO DIALEKTAL- ETNOGRAFIK LEKSIKASIDA TURLI DIN VA MADANIYAT BELGILARI

Raxmanov Botir Abdurasulovich,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti.v.b.

O'zbek xalqi etnomadaniy muhitining shakllanishi va rivojida Surxon vohasi etnografiyasi, folklori va dialektologiyasining o'rni beqiyosdir. Xususan, K.Shoniyozovning ta'kidlashicha, Surxondaryo hududida yashagan xalqlarning shakllanishiga oid manbalarni o'rganish jarayonida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayot mahalliy aholining etnik tarkibi, etnomadaniy aloqalari haqida ma'lum ilmiy bilimga ega bo'lish imkonini beradi. Qadimgi Oks (Amudaryo), Surxon (Chag'onrud) va Sheroboddaryo o'zanlarida o'zbek xalqi ajdodlari-saklar, massagetlar, xioniylar, boxtarlar, taxorlar va boshqa xalqlar yashaganligi manbalarda qayd etiladi. Olimning yana qayd etishicha, Qadimiy moddiy-ma'naviy hayot markazi bo'lgan Termiz ilk o'zbek davlatchiligining asosiy markazlaridan biri sifatida tanilgan. Surxon hududida Sopollitepa, Jarqo'ton, Kuchuktepa, Tallashqon, Jondavlattepa, Qiziltepa, Hayitobodtepa, G'ozmulla, Bandixontepa, Dalvarzin, Xolchayon, Chag'oniyon, Termizda istehkomli qo'rg'onlarning qad rostlashi, ilk davlatchilik siyosiy markazlari mahalliy o'troq aholining etnik shakllashishi bilan bog'liqdir. Vohadagi qulay iqlim, hosildor tuproq sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikning rivojlanishiga imkoniyat yaratib, qabila ittifoqlarining jipslashuviga, moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishiga asos yaratgan.[1]

Undan tashqari olim mazkur hududda etnomadaniy hayotning shakllanishida arab, mo'g'ul, fors-tojik hamda boshqa o'zbek urug'larining ham ta'siri bo'lganligini ta'kidlaydi. Bu narsa hozirgi dialektal-etnografizmlarda, xalq og'zaki ijodi namunalarida ham o'z aksini topgan.

Etnografizmlarni keng tadqiq etgan boshqird olimasi M. Bagautdinova Etnografiya – bu etnik xususiyatlar, tavsiflar, kitobdagi tafsilotlar, spektakl va boshqalarning mavjudligidir deya qayd etadi. Tilshunoslik adabiyotida etnografizm- bu xalq urf-odatlari va urf-odatlar kiyingan so'zlar va iboralardan tashkil topishini, xalq an'analari va marosimlari har bir xalqning ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida chuqur joylashganligi sababli, milliy xususiyatlar u yoki bu odamlarning xarakterida, turmush tarzida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Olima etnografik dialektizmlar haqida ham o'z fikrlarini bayon etgan. Unga ko'ra, har qanday tilda so'zlar ikkita leksik qatlamdan tashkil topadi. Biri ko'psonli umumxalq tili, ikkinchisi ma'lum bir hudud aholisi tomonidan ishlatiladigan so'zlar bo'lib, ular ma'lum bir hudud aholisining, turmush tarzi, madaniyati va boshqa jabhalarini namoyon qiluvchi lahjalarni ifodalaydi. Etnografik dialektika va leksika deganda mahalliy lahjalar yoki mahalliy hayotning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'langan leksik birliklar tushuniladi[2].

Yuqoridagi olimlarning fikridan ham ko'rish mumkinki, biror bir xalqning tarixiy shakllanishi va etnik o'zgarishlari o'ziga xos murakkab jarayondir. Urug'-qabilalarning o'zaro birikishi va ajralishi, boshqa mahalliy millat vakillari bilan o'zaro qorishiq yashash, turli bosqinlar natijasida urf-odat va terminlarning saqlanib qolishi bularning hammasi xalqlarning etnomadaniy va boshqa sohalarida o'z aksini qoldiradi. Bu narsa Surxon vohasida yashab kelayotgan xalqlar hayotida ham o'z aksini topgan. Masalan, vohaning etnomadaniy sathiga oid leksema (etnografizm)larga e'tibor qaratadigan bo'lsak, *qirqchiraq, tangri, oshxudayi, xudayi, xomtalash, bobochaqirish, to'qqiztobaq, sovchi, jarchi, qo'noq, tuvcha* kabi turkiycha so'zlar bilan birga *; hayrot, xatim, motam, janoza, dallol, maraka, ta'ziya kabi arabcha; gashtak, poyandaz, so'zani, ijap, chilla, poyanop, shishak, chori, panji (qo'chqor yoshi), shirboz, dasro'mol* kabi fors-tojikcha etnografizmlarni uchratish mumkin.

Voha etnomadaniy hayotining taraqqiyotida mazkur hududda yashab kelgan aholining etnik tarkibi va uning shakllanish jarayoni alohida ahamiyatga ega. Aytish kerakki, etnogenez va etnik tarixni o'rganish alohida ilmiy mushohadani talab qiladigan o'ta

[1] Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни.Т.: Шарқ 2001, 117-120 –бетлар.
[2] Багаутдинова.М.И. Этнографическая лексика Башкирского языка. Уфа., 2002. С. 16-17.

muhim ilmiy sohadir. Elshunoslikda irqiy xususiyatlarni o‘rganish, urf-odatlarni tahlil qilish, har bir etnik qatlamning o‘zaro farqini ajratish muhim sanaladi. Vohada qadimdan yashab kelgan tub aholi sifatida turkiy xalqlar tushuniladi. Yanayam aniqroq aytganda, o‘zbeklar (etnonim) tashkil qilgan. Karmishevaning ta’kidlashicha, XX asr boshlarida Surxondaryo aholisining 64 foizini etnik o‘zbeklar tashkil qilgan. Jumladan, Sherobod bekligida yashagan 29580 kishidan 23255 tasi ya’ni 78 foizi, Boysun bekligida yashagan 50495 kishidan 27914 tasi, ya’ni 55 foizi o‘zbeklardan iborat bo‘lgan.[1]

Bizga ayonki, o‘zbek urug‘lari bir vaqtda ham Dashti qipchoqda ham Movarounnahrda yashashgan. Turk-mo‘g‘ul qabilalari Oltoydan Uralgacha bo‘lgan hududlarda makon topishgan. Shuning uchun ba’zi urug‘larni qadimgi yoki oxirgi ko‘chmanchi sifatida qarash noto‘g‘ri. Ularni bir-biridan farqlashda shevalar, tashqi ko‘rinish, etnografik xususiyatlar asosiy omil sanaladi. Olimlar Surxon aholisi etnik tarkibini uchta guruhga ajratishadi.[2]

1. Urug‘-qabilalarga bo‘linmaydigan aholi, ya’ni «sart-chig‘atoylar», «xo‘jalar», «qarshiliklar».
2. Qadimgi urug‘lar, ya’ni mo‘g‘ullar istilosiga qadar va mo‘g‘ular bilan birga kelgan turk-mo‘g‘ul qabilalari, ya’ni yuqorida tilga olingan turklar.
3. Dashti qipchoqdan Shayboniyxon bilan kelgan so‘nggi ko‘chmanchi o‘zbek urug‘lari, ya’ni yuqorida aytib o‘tilgan «o‘zbeklar». (O‘zbek termini bilan bog‘liq ko‘plab bahsli fikrlar mavjud)

Karmisheva tomonidan berilgan tasnif Surxon vohasi xalqlarining etnik tarkibini mukammal aks ettirmasada, o‘z davri uchun muhim va bugungi tadqiqotlarga asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘rganishlar mazkur hududda chig‘atoy, xo‘ja, miyon, qarshilik, turk, toqchi, machay, qatag‘oni, xataki, qo‘ng‘irot, juz (yuz), qovchin , qutchi, do‘rmon, nayman, mang‘it kabi urug‘lar, etnik tojiklar, arablar, turkman millatiga mansub aholi, shu bilan birga kelib chiqishi Hindistonga borib taqaladigan lo‘lilar (mahalliy tilda jo‘gilar) istiqomat qilib kelayotganligini ko‘rsatadi. Bu urug‘lar mushtarak etnomadaniy hayot tarzi bilan bir qatorda o‘ziga xos urf-odat va an’analari yashash tarzi va kundalik hayoti bilan ham farqlanadi.[3]

Surxon vohasi aholisining etnomadaniy turmush tarzini turli rasm-rusumlar, diniy marosimlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Voha aholisining turmush-tarzini tadqiq qilish jarayonida umummilliy diniy qadriyatlar, an’analar va marosimlar bilan birga vohaning ming yillar davomida yashab kelayotgan o‘ziga xos «siyinish» usullari, e’tiqodlariga, irm-sirimlariga guvoh bo‘ldik. Aholi orasida islom dini bilan birga totemizm, fetishizm, animizm, shamoniylik kabi dinlar bilan bog‘liq rasm-rusumlar ham keng yoyilgan. Masalan, bo‘riga totem sifatida qarashgan. Uning tirnog‘ini, tishini, tumor qilib olib yurishgan. Chorvador ovchilar bo‘rini otib o‘ldirgach uni ot ustiga mindirib qishloq aylantirishgan. Qishloq aholisi uning junidan, tirnog‘idan, tishidan va boshqa a’zolaridan olishgan va cho‘ponga turli sovg‘alar ulashgan. Mahalliy aholi otni ham muqaddas bilib uning «dev»i bor deyishgan. Bir yilda bir kavush qaytariishni va o‘sha payi ot olov purkashini ta’kidlashadi. Bu holatni ko‘rgan odamlarga ko‘plab yaxshiliklar kelishini irm qilishgan. Qo‘yning, sigirning kalla qismini dala maydonlariga ilib qo‘yishgan va hosilni turli yomon nazarlardan asraydi deya ishonishgan. Isiriq va qalampirni yangi uyning peshtoqiga ilib qo‘yib ko‘z va suxlardan «himoyalagan». Dehqonlar maxsulotlarini bozorga olib chiqish oldidan «savdo chaqqon bo‘lsin» deb zambur (ari) uyasini maxsulot orasiga solib qo‘yishgan. Yuqoridagi rasm-rusum va totemistik ko‘rinishlarga voha aholisi hozir ham faol amal qilishadi.

Undan tashqari voha aholisi orasida turli «muqaddas» joylarga, avliyo va buyuk insonlarning qabrlariga, shayitlarga, qadimiy daraxtlarga mato bog‘lash, sig‘inish kabi animistik diniy unsurlar belgilari ham ancha keng tarqagan. Masalan, inson tanasida sugal yaralarga biror avliyoning qabri yoki shahid kutarilgan tug‘ ostidagi tuproq (damkarda)dan olib surilsa tezda yaxshi bo‘lib ketgan. Yoki qutirgan it tishlagan kishini «Ko‘pak» ota (Qiziriq tumanidagi ziyoratgoh. Bunday joylar bir nechta) ziyoratgohiga olib borib aylantirib sig‘insa yaxshi bo‘lib ketgan. Kelinchaklar safarda paytda biror avliyo yoki ulug‘ insonlarning qabriga yaqin joyda farzandli bo‘lsa yoki o‘sha payt homilador bo‘lgan bo‘lsa, uni tug‘ilajak farzandiga «boshniyoz» bo‘ldi deb irm qilishgan. Va tug‘ilgan farzand keyinchalik o‘sha joyni tez-tez tez ziyorat qilib turishgan. Ayollar bunday joylarga farzand so‘rab ham ko‘p iltijo qilib sig‘inishgan. Tug‘ilgan bolaga nisbatan esa «tilab oldi», «bosh urib oldi», «shayitga siyinib oldi» kabi iboralarni ishlatishgan.

Voha aholisi tomonidan sig‘inadigan va ulug‘lanadigan shunga o‘xshash ko‘plab joylar ilohiylashtirilgan. U yerdan chiqadigan buloqlar ham ko‘p kasalliklarga shifo sanalib, obod hududlarga aylantirilgan. Bunday joylar bilan bog‘liq ko‘plab rivoyatlar va afsonalar mavjud. «Omonxona- ota», «Xo‘jayipok ota», «Anjir ota», «Qo‘chqor ota»,»Sulaymon ota», «Potmabuloq», «Tolla toba» kabi.

Voha aholisi o‘zlarining kasb-kori, shug‘ullanadi-

[1] Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М.: «Наука», 1976. С.34.
[2] Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М.: «Наука», 1976. С.66.
[3] Батафсил қаранг. С.Турсунов, Т. Пардаев ва б. Ўзбекистон тарихи ва маданияти: Сурхондарё этнографияси.

gan faoliyat turi bo‘yicha ham turli ilohiy kuchlarga sig‘inishgan. Masalan aholi erta bahor har yili yig‘ilib jonliq so‘yib ilohiy kuchlardan dehqonchilik uchun baraka va suv so‘rab sig‘inishadi. Bu marosimni xalq «oshxudoyi», «darveshona», «xayrixudo» deb atashadi. Kuzatishlarda bu marosimda ikki din zardo‘shtiylik va islom qadriyatlarini ko‘rish mumkin. Jonliq so‘yib ilohiy kuchlarga sig‘inish va so‘ngida Qur’on oyatlari tilovat qilinadi. Umuman vohada turli holatlarda jonliq so‘yib sig‘inish urfga kirgan. Bunda tovuq, xo‘roz, qo‘y, echki, ho‘kkiz, sigir ba’zan ot tuya kabi jonzotlar tanlangan. Shu bilan birga biror faoliyat turi bilan shug‘ullanish oldidan, yoki oilada biror yangilik, farzand tug‘ilishi kabi holatlarda ham turli jonliqlar so‘yilib is chiqarilagan. Yigitlarni balo qazolardan asrasin, ishi yurishsin deb yigit pirlariga, mirob va dehqonlar suv bilan bog‘liq balo qazolarning oldini olishni so‘rab Sulaymon otaga, dehqonlar Bobodehqonboboga, chorvadorlar mayda shohli mollar uchun Cho‘pon otaga, yirik shohli molar uchun Zangiboboga, temirchilar, hunarmandalar Dovut otaga, safarga yo‘l olganlar Bahovuddin balogardonga atab turli marosimlar o‘tkazishgan va bu an’analar hozir ham vohada yaxshi saqlangan. Shuningdek, farzandtalab insonlar Uzun tumanidagi Oqostona boboga, mol-davlat so‘rovchilar Bobotog‘dagi Hazrat bobo ziyoratgohiga e’tiqod qilishgan. Ayniqsa, vohada aholining asosiy mashg‘ulot turi bo‘lgan chorva bilan bog‘liq irm-sirimlar, qadriyatlar, marosimlar talaygina. Bu esa hudud etnomadaniy hayotida chorvadorlarlar yetakchi mavqeyga egaligini bildiradi. Chorvadorlar mollari kasallansa o‘zlariga yaqin ziyoratgohlarga mollarni haydab borib ziyoratgoh atrofini uch marta aylantirib shifo so‘rashgan. Cho‘pon tayog‘ini kasalliklar shu yerda qolsin, degan maqsadda ziyoratgohga tashlab qaytgan. Ziyoratgoh uzoq bo‘lsa tuprog‘idan olib kelib tuzga qo‘shib mollarga yedirgan. Mollarga ko‘plab qiron kelsa, Kalomi sharif, ya’ni Qur’oni Karim olinib keksa cho‘ponning sallasi o‘rtasiga bog‘lanib, qo‘ton[1] og‘ziga sallaning ikki tomonidan ikki kishi ushlab turgan. Salla tagidan mollar uch marta o‘tkazilgan va mollar kasallikdan tuzalgan.

Chorva mollarini davolashda zardushtiylik yoki boshqa din asoratlari ham uchraydi. Xususan, mollar kasallanganda nomozxon kishi yarim metr uzunlikdagi tayoqchaga latta bog‘lab moyga botiradida, olovga yoqib mollar ustidan aylantirib «xolos» qiladi. Jarayonda mollar hurkib qochishi zarur. Aks holda «em» (da’vo) bo‘lmaydi.

Mahalliy aholi quyosh botgandan keyin sut, qatiq so‘rab chiqqanlarga «sigir yelini uchadi» deb irm qilib ularni qaytarishgan. Bu odat boshqa turkiy xalqlarda ham mavjud[2].

Xullas, voha aholisining chorvachilik bilan bog‘liq irm-sirimlari juda ko‘p va bu haqda keyingi boblarimizda ham to‘xtalamiz.

Yurtimiznig barcha joylaridagi kabi Surxon vohasi etnomadaniy hayot tarzini ham folbinlik va qushnochchiliksiz[3] tasavvur qilish qiyin. Albatta, otashparastlik dini namunalarini o‘zida saqlab kelayotgan ushbu sohalar mahalliy-mental xususiyatlari bilan alohida farqli tomonlarga ham ega. Bugungi kunda ham mahalliy aholi faol murojaat qiladigan qushnochchilik va folbinlik o‘ziga xos etnografik terminlarni yuzaga keltirgan. «*Yeskichilik*», «*qildirmoq*», «*ko‘rsatmoq*», «*mirasi*», «*poxta silamoq*» «*chiraq joxmaq*», «*xolaslamoq*», «*qoraxalos*», «*yetihurkkan*» «*qirqchiraq*», «*o‘likziyan*», «*ziyanbermoq*», «*ziyanovmoq*», «*qoramomo urmoq*», «*yembo‘moq*», «*duo qimoq*», «*duo jedirmoq*», «*suxlanmoq*», «*kirnasuv bermoq*», «*Chiltan yangilamoq*», «*chiltansuv ichmoq*», «*jo‘li baylangan*», «*jo‘lini ochmoq*» kabi dialektal-etnografizmlar shular jumlasidandir. Albatta, bunga ming yillar davomida mahalliy aholining yovuz kuchlar haqidagi tasavvurlari avloddan avlodga o‘tib kelayotganligi ham sabab. Ular ajina, jin, dev, va parilar bor, bular kishilarga ziyon berishi yoki ezgulik ulashishiga qattiq ishonishgan. Hozir ham kichkina bolalarani ajina yoki dev kelayapdi deb qo‘rqitish odati bor. Bu qo‘rquv va vahima ularni katta bo‘lgach ham tinch qo‘yishmaydi. Bunday yovuz kuchlarning zarar berishiga ishonishadi va ulardan xolos bo‘lish maqsadida kasal bo‘lganda ko‘pchilik shifokor bilan bir qatorda folibin yoki qushnochga ham borishadi. Odatda oldin folbinga boradi. Folbin kasallik sabablarini aytib, bajariladigan amallarni tushuntiradi va uni qushnochga jo‘natadi. Qushnoch uni folga chiqqan amallar vositasida «xolos» qiladi. Ko‘p hollarda folda og‘riyotgan joylarini aytadi, hamda qaysidir yovuz kuchlar zarar berib turganini ta’kidlaydi. Qushnoch yordamida uloq yoki tovuq (turli rangdagi) so‘yilib qon chiqariladi. Cho‘pga paxta o‘ralib moyga botiriladi va yoqilib bemor ustidan aylantiriladi. Bemor betiga suv sepiladi, qulog‘i cho‘ziladi, orqasiga cho‘p bilan savalaydi. Shu tarzda yovuz kuchlarni haydaydi. Bemorning ustiga kirib kelganlarning yuziga ham suv uriladi. Ba’zan bu amallarga qo‘shimcha bumushkul (bibimushkulot) ham o‘tkaziladi. Qushnoch va folbinlik amallarini ko‘p hollarda ayollar bajarishadi. Ba’zan

[1] Молхона ёки қўйхона.

[2] Қаранг. Шониёзов К.Ш. Этнический истории узбекского народа. - Т.: Фан, 1974, с.204.

[3] Омонтурдиев А. Раҳмонов Б. Сурхондарё диалектал-этнографик мақолларининг қисқача изоҳли луғати. Тошкент, 2019. –Б. 21-31-39. “Қушноч” - Сурхон воҳасида момоларнинг аждодларидан қолиб келаётган “қўл олиш” маросими асосида фолбинлик ҳамда у билан боғлиқ ирм- сиримларни амалга ошириувчи киши.

«qo‘l» olgan bo‘lsa erkaklar ham bajarishadi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, Surxon vohasi aholisining qadriyat va an’analari, rasm-rusumlari o‘ziga xosligi va xilma-xilligi, jozibadorligi bilan alohida ajralib turadi. Chunki, bularning barchasi aholining bugungi turmush tarzi va tarixiy etnomadaniyati bilan uyg‘unlashib ketgan.

Rezyume. Maqolada Surxondaryo dialektal-etnografik leksikasining tarixiy rivojlanishi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, turlari, turli tillar, dinlar va madaniyatlarning mahalliy etnografizmlarda aks etishi haqida so‘z boradi.

Resume. The article discusses the historical development of the Surkhandarya dialectal-ethnographic lexicon, its specific features, types, and the reflection of different languages, religions, and cultures in local ethnographies.

Резюме. В статье рассматривается историческое развитие диалектно-этнографической лексики Сурхандарьинской области, ее специфические особенности, типы, отражение различных языков, религий и культур в местных этнографиях.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BIZNES DISKURSINI SINERGETIK YONDASHUVDA O‘RGANISH MASALASI

Qodirova Mukaddas Tog‘ayevna,
Termiz davlat universiteti
ingliz tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Zamonaviy ilmiy paradigmaning o‘zgarishi tilning funksionallik xususiyatlarini ochib beruvchi yangi metodologik vositalar shakllanayotgan bir paytda, til tuzilishiga oid tadqiqotlarda avvalgi uslublar sekin-sekin universallikka aylanmoqda. Binobarin, diskurs makonida til birliklarining qanday faoliyat yuritishini o‘rganish tanqidiy qarashni ham, zamonaviy nazariy yo‘nalishlarning ilmiy salohiyatini chuqur tahlil etishni ham taqozo etadi. A.Nurmonov qayd etganidek, til tizimi bir tomondan o‘z-o‘zidan tashkillanish xususiyatiga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan subyekt aralashuvi bilan tartibga tushish (leksik muqobillarni tanlashda, adabiy til me’yorlarini belgilashda, til siyosati ta’sirida) belgisiga egadir[1]. Ana shunday ichki tizimlilik xususiyatiga ega obyektlarni hamda ularning umumiy jihatlarini o‘rganuvchi yo‘nalishga amaliy ehtiyoj tug‘ildi. Buning natijasida **sinergetika** maydonga keldi.

«*Sinergetika*» atamasi ko‘pincha nemis olimi, Shtutgart universiteti professori Georg Xaken va belgiyalik olim, Bryussel universiteti professori Nobel mukofoti sovrindori Ilya Prigojin bilan bog‘lanadi[2]. Dastlab u lazer nurlanishida kuzatiladigan o‘z-o‘zini tashkil etish jarayonini tavsiflash uchun joriy etilgan deb hisoblanadi. Biroq G.Xaken bu atamani ilk bor XX asrning boshlanishida ingliz fiziologi Ch.Sherrington tomonidan mushak tizimlari va ularning orqa miya orqali boshqarilishi bilan bog‘liq tadqiqotlarida

[1] Нурмонов А.Лингвосинергетикага кириш. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.5-6.
[2] Хакен Г. Синергетика. – М: Мир, 1980. – 406 с. file:///C:/Downloads/Khaken_G_-_Sinergetika_-1980.pdf.